

O'zbekistonda Jurnalistlarni Tayyorlashda Kreativ Yondashuv

Xamroyeva Shaxrizoda Shavkat qizi¹

Abstract: This article talks about the attitude to the mass media during the time of the Shura government, freedom of opinion, and the appearance required of today's journalists. In addition, the difference between Uzbek national journalism and international journalism standards is discussed.

Key words: National journalism, news agencies, research institute, reporter, journalistic education, creativity.

Kirish. O'tmishga nazar solsak, o'zbek milliy jurnalistikasi o'zining qariyb 150 yilga yaqin tarixi mobaynida ham rivojlanish, ham o'ta og'ir, turg'unlik davrlarini boshdan kechirdi. Uni dastlab chor Rossiyasiga xizmat qildirishdi. Keyingi davrda milliy va ma'rifiy ruhiyat kasb etdi. Sho'rolar hukumat tepasiga kelgach, vaziyat yana salbiy tomonga o'zgardi.

Mustaqillik yillarda jurnalistikamiz ilg'or xalqaro tajribalar hamda zamonaviy tendensiyalarni o'zida sinab ko'rmoqda. Natijada, bugungi kunga kelib o'ziga xos, betakror milliy qiyofaga ega bo'lmoqda. Zamonaviy jurnalistik tafakkurni shakllantirish, jurnalistni OAV tizimi talab-ehtiyojlariga mos keladigan amaliy, ijodiy faoliyatga tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridandir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Andre Jid "Bugunning ertadan ham qiziq bo'lishi, bu jurnalistikadir" deganida bu sohaning ayni paytdalik muhimligiga ishora qiladi. Oshpazlar ovqat ta'minotchisi, shifokorlar sog'lik qo'riqchisi bo'lsa, jurnalistlar beminnat axborot yetkazib beruvchilardir. Jarko Petanning "Yorug' kelajak haqida siyosatchilar, shonli o'tmish xususida tarixchilar, bugunning yorqinligi to'g'risida jurnalistlar qayg'uradilar", - degan fikrida ham jurnalistika bugungi kun bilan, kundalik hayot bilan bog'liqligini nazarda tutadi.[1]

Yetuk jurnalistlarni tayyorlashda va jurnalistika sohasini rivojlantirishda ustuvor tamoyillarni dunyo tajribasidan ko'rib chiqish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Kreativ yondashuv, albatta, jurnalistning ham ijodiy qobiliyatları, individual kasbiy mahoratiga ham bog'liq. Ammo ayrim mamlakatlarda jurnalistga qo'yiladigan muhim talablarni va ularni tayyorlashda maxsus e'tibor qaratiladigan jihatlarni ko'rib chiqamiz. Xususan, Bosniya davlatida Matbuot jurnalistlari Kodeksi mavjud bo'lib, unda kamsitishga yo'l qo'ymaslik uchun ehtiyyotkor bo'lish prinsipi asosiy xususiyat hisoblanadi. Jahonda mashhur axborot vositalasi sanalgan BBC muxbirlari uchun xolislik va aniqlik muhim tamoyillardandir. Rivojlangan mamlakatlar qatorida eng ilg'or hisoblangan Yaponiya davlatida jurnalistika qonunlari ommaviy axborot vositalarni farovon va tinch kelajakni yaratish uchun mas'ul tizim sifatida belgilaydi. Jurnalistlar uchun axloq kodekslari ishlab chiqilgan bo'lib, unda tuhmat, haqorat, plagiarism, pora olish, uydirma, to'qima hodisalar asosida soxta axborotlar tayyorlash kasbiy etiketga mutlaqo zid sanaladi va javobgarlik yuklaydi. Ommaviy axborot vositalari nihoyatda katta kuch ekanligi ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni, ijtimoiy muammolarning xolisona yoritilishi, so'z erkinligi kabi masalalar bilan ham bog'liq. Jurnalistikada kreativ yondashuvning turli usullari mavjud. Bunda qanday manzara yoki hodisaning yoritilayotgani ham ahamiyatga molik. Masalan, jinoyat bilan bog'liq axborotlarni qanday yoritish, qurbanlar haqida qanday so'zlash, hodisaning oqibatlarini ommaga tasvirlab berish murakkab va munozaralidir. Qanday mavzu yoritilmasisin, barchasida jurnalistlarning demokratiyaga, jamiyatning ma'nан yuksalishida qo'shadigan hissasi beqiyos bo'ladi. Shularni

¹Buxoro davlat universiteti Jurnalistika ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi



inobatga olgan holatda, jurnalistika sohasida kreativ yondashuv soha mutaxassislarining faoliyatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, jurnalistika sohasida o'z yechimini kutib yotgan masalalarimiz talaygina. Ba'zan xizmat taqozosi bilan jurnalist o'zi xohlagan mavzuda yoza olmaydi. Aytaylik, biror mashhur kinoyulduz yoki sportchidan intervyu olmoqchi bo'lib turganda, favqulodda tahririyatdan boshqa bir tadbirda ishtirok etib, xabar tayyorlash yoki biron-bir ilmiy-tekshirish instituti faoliyati haqida maqola yozish vazifasi topshirildi. Kutilmagan mavzuga moslashish oson kechmaydi. Yoki shunday holatlar bo'ladiki, odamning hech narsa haqida yozgisi kelmaydi, yo yozishga tuzukroq mavzu topilmaydi.

Ayniqsa, kutilmagan yoki yoqtirmagan joyga xizmat safariga borishiga to'g'ri kelib qolsa, albatta, insonni toliqtiradi. Jurnalist yozadigan qaynoq yangilikni, qiziqarli reportajni, muammoli maqolaning mavzusini o'zi topadi. Yozgan sayin tajribasi ortib boraveradi, maqolasi esa takomillasha boradi. Qarabsizki, u professionalga aylanadi. Shu sababli, jurnalistika qiziqarli, shu bilan birgalikda murakkab va o'ziga xos injiq kasbdir.

Natijalar va muhokama. «Jurnalistikaning ahamiyati shundaki, u bizning kundalik hayotimizdag'i tanlovlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramay, jurnalistikaning kelajagi hayotda o'z tasdig'ini topmagan. U hanuz mavhumligicha, o'z faoliyat turini kengaytirib bormoqda. [2]

Shunday vaziyatda tan olishimiz kerak, mamlakatimizda zamon talablariga mos jurnalist kadrlarni tayyorlashda yillar davomida o'z yechimini kutib yotgan masalalar ham bisyor.

Bugungi kunda jurnalistika ta'limi sohasida muammolar shu qadar yig'ilib qolganki, ularni bitta maqola doirasida sanab o'tish yoki hal etish bo'yicha takliflar berish mutlaqo mumkin emas. Shu sababdan mavjud muammolarning ayrimlarigagina e'tiboringizni qaratamiz xolos.

Avvalo, O'zbekistonning tashqarisidan turib ichkariga, ya'ni mamlakatimiz aholisi uchun yozadigan xorijiy muxbirlik punktlari shakllanmagan. Mamlakatimiz yetakchi ommaviy axborot vositalari, «Jahon» axborot agentligidan tashqari, shu kungacha o'z muxbirlarini chet elga doimiy ishlash uchun yubormagan. Vaholanki, ingliz, rus, xitoy, ispan, fransuz, polyak, yapon va boshqa chet tillarni yaxshi o'zlashtirgan milliy kadrlar tayyorlashga erishildi.

Bundan tashqari, ichkarida turib tashqariga – turli tillarda, misol uchun ingliz tilida axborot uzatuvchi muxbirlarni tayyorlash ishi takomillashtirilmagan. Talabalarni o'qish jarayonida chet el OAVga muntazam ravishda amaliyotga yuborish uchun zarur ishlar qilingani yo'q.

Shuningdek, jurnalistikani fan darajasiga olib chiqishga qaratilgan ilmiy maktab faoliyati, sohada olib borilayotgan yangi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar yetarli darajada qo'llab-quvvatlanilmayapti. Xususan, yosh olimlarning maqolalarini yetakchi xalqaro nashrlarda chop etishni tizimlashtirish, ularning xalqaro anjumanlardagi ishtirokini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni bevosita moliyalashtirish (research funding) ishlari yo'lga qo'yilmagan. Qo'shimcha tarzda, yuqori darajadagi intellektual salohiyatga ega bo'lgan ijodiylar kadrlarni tayyorlashga bevosita xizmat qiladigan o'quv laboratoriyanining moddiy-texnik bazasi zamon talablariga mutlaqo javob bermaydi.

Yana bir tomoni, xorijiy turdosh oliy o'quv yurtlari bilan jurnalistik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, talaba va o'qituvchilar almashinuvlari bo'yicha hamkorlik aloqalarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish zarurati tug'ilmoqda.

Xulosa. Bu kabi muammolarni imkon doirasida tezroq hal qilar ekanmiz, qalami va nafasi o'tkir o'zbek jurnalistlari hech ikkilmasdan butun dunyo ahliga mikrofon tuta oladi. Shu bilan birgalikda mamlakatimiz qonunlarida belgilangan fikr erkinligi ham amalda to'laqonli o'z tasdig'ini topadi. O'zbek milliy jurnalistikasi jahon shohsupasiga o'zgacha kreativlik bilan kirib borsagina, uzoq yillar davomida mohir jurnalistlar tomonidan qilingan mehnat, yaratilgan jurnalistik maktab munosib o'rnibi topa oladi. 2018-yilda O'zbekiston Milliy Universiteti jurnalistika fakulteti hamda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi xalqaro jurnalistika yo'nalishiga qabul to'xtatilganiga qaramay, uning o'rniga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 24-



maydagi (PQ-3737) Qarori bilan O‘zbekiston va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining tashkil etilishi milliy jurnalistikamizni yana bir pog‘ona yuksaklangandan dalolatdir. [3]

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti 2019-yil.9-bet
2. Karin Wahl- Jorgensen,Thomas Hanitzsch. The handbook of journalism study. International communication association 2009-y.
3. Oliy ta'lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent 2011-y.

